

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

---

Ro'yxatga olindi:  
№ BD 24  
2025 yil 21 " 08



*1 on kuchi*

**LANDSHAFTSHUNOSLIK  
FAN DASTURI  
(kunduzgi va kechki)**

<b>Bilim sohasi:</b>	100 000 – Ta'lim
<b>Ta'lim sohasi:</b>	110 000- Ta'lim
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

*3*

<b>Fan/modul kodi</b> <b>LandSHT304</b>		<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 5	<b>ECTS – Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov fan		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4-5	
<b>1.</b>	<b>Fan nomi</b>		<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami (soat)</b>
	Landshaftshunoslik		60 (30/30)	60	120
<b>2.</b>	<p><b>I. FANNING MAZMUNI</b></p> <p>Fanning mazmuni. Landshafshunoslik kursining asosiy mazmuni talabalarda yer landshaft qobig'ining bir butunligini, uning komponentlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'ligi va aloqador ekanligi ular orasidagi murakkab modda va energiya almashuvi jarayoni mavjudligi haqidagi tushunchalarni shakllantirishga hamda yer landshaft qobig'ini tashkil qiluvchi geosistemalar haqidagi bilimlarni hosil qilishdan iboratdir.</p> <p>Fanning vazifasi: Landshafshunoslik g'oyalarining shakllanishi va taraqqiyot tarixi, landshafshunoslikning ilmiy nazariy asoslari, landshaftlarning strukturasi, landshaftlarning kelib chiqishi, dinamikasi, rivojlanishi va maxsus faoliyati, antropogen landshaftlar, ularning hosil bo'lishi va tasniflari, amaliy landshafshunoslik (landshaftlarni baholash va prognozlash), tabiiy resurslardan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning landshaft-ekologik prinsiplari va metodlari <i>haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak.</i></p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Landshaftshunoslik fanining maqsadi va vazifasi.</b></p> <p>“Landshafshunoslik” fani, predmeti, tadqiqot obyekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Landshafshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi.</b></p> <p>V.V. Dokuchaevning tabiiy komponentlar aloqadorligi va ular bir butun majmua sifatida o'rganilishi kerakligi haqidagi g'oyalari. 1913-1914 yillardagi rus tabiatshunos olimlari L.S.Berg, G.F.Morozov, I.M.Krashennikov, R.I. Abolinlarning landshaft haqidagi fikrlari. 1920-1940 yillarda bajarilgan B.B.Polinov, I.V.Larin, A.D.Gojev, L.G.Ramenskiy, L.S.Berg kabilarning ishlari va ularning landshafshunoslik fanining rivojlanishiga qo'shgan hissasi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlardagi landshafshunoslikning rivojlanishi va unda L.S.Berg, N.A.Solnsev, S.V. Kalesniklarning roli. 1950-1970 yillardagi A.G.Isachenko, F.N.Milkov, V.S. Preobrajenskiy, N.A. Gvozdeskiy, D.L.Armand, V.B.Sochava va boshqalarning landshafshunoslikka qo'shgan hissalar. 1970 yildan so'nggi landshafshunoslikning rivojlanishi va undagi asosiy yo'nalishlar.</p> <p style="text-align: center;"><b>O'zbekistonda Landshaftshunoslik fanining rivojlanishi</b></p> <p>O'zbekiston landshafshunos olimlarining fanning rivojiga qo'shgan hissalar. O'zbekistondagi landshaftshunoslik tadqiqotlar. O'zbekistonda landshaftshunoslik markazlari va maktablari.</p> <p style="text-align: center;"><b>Landshaft komponentlari va landshaft hosil qiluvchi omillar</b></p> <p>Komponent to'g'risida tushuncha. Landshaft komponentlari. Landshaft hosil qiluvchi</p>				

omillar. Fatsiya va urochishe haqida tushuncha.

**Landshaftning morfologik birliklari va ichki aloqadorliklari** (Landshaft komponentlari va ularning xossalari. Morfolitogenez turlari; morfologik tuzilishi)

Landshaftlar morfologiyasi haqida tushuncha. Landshaftlarning ichki tuzilishi. Landshaftlarning morfologik tuzilishi. L.G.Ramenskiy, B.B.Polinov, N.A.Solnsevlarning landshaft morfologiyasiga qo'shgan hissalari. Fatsiya landshaftlarning eng kichik morfologik qismi ekanligi. Fatsiyaning bir butunligi va bo'linmasligi. Fatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Ularni tasniflash masalalari.

#### **Landshaftlarning chegaralari.**

Landshaft chegaralari. Aniq, keskin chegaralar va oraliq zonalar. Ekoton tushunchasi. Landshaft chegaralarini aniqlash va kartaga tushirish masalalari.

#### **Landshaftning maxsus faoliyati**

Landshaftlar faoliyati haqida tushuncha. Landshaftlarda energiya oqimi. Namlikning aylanma harakati. Moddaning biologik aylanma harakati. Landshaftda moddaning biogeokimyoviy aylanishi. Fotosintez tushunchasi haqida tushuncha

#### **Landshaftlarning dinamikasi, rivojlanishi va barqarorligi**

Dinamika haqida tushuncha. Landshaftlarning dinamikasi. Landshaftlarning tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi. Landshaftlarning rivojlanish qonuniyatlari

#### **Landshaftlarning tasnifi.**

Tasniflash haqida tushuncha. Landshaftlar tasnifining asosiy tamoyillari. Landshaftlar tasnifining asosiy birliklari. A.G. Isachenko (1961), N.A. Gvozdeskiy (1961), F.N. Milkov (1967) larning landshaftlarni tasniflash tajribalari. V.A. Nikolaev (1979) ning landshaftlarni tasniflash sxemasi. Tasnif birliklari.

#### **Landshaftshunoslikdagi asosiy ilmiy yo'nalishlar**

Tarkibiy-genetik yo'nalish, funksional-dinamik yo'nalish, landshaftlar geokimyosi yo'nalishi, landshaftlar geofizikasi, tizimli yondoshish, landshaftlar ekologiyasi yo'nalishi.

#### **Antropogen landshaftlar va uning tiplari**

Antropogen landshaftlar haqida tushuncha. Antropogen landshaftshunoslik yo'nalishiniig vujudga kelishi va shakllanishi. Antropogen landshaft tiplari va ularning tasnifi. Tabiiy-antropogen landshaftlar va ularning hosil bo'lish omillari. Landshaftlardagi ma'lum maqsadlarni ko'zlab qilingan ta'sirlar, ularning oqibatida kutilgan va kutilmagan o'zgarishlar. Antropogen landshaft, madaniy landshaft tushunchalari. Antropogen landshaftlarni tasniflash tajribalari. Qishloq xo'jalik landshaftlari, sanoat landshaftlari, shaharlar landshaftlari, suv, antropogen landshaftlari, o'rmon-antropogen landshaftlar va h.k. Madaniy landshaftlar.

## **Amaliy landshaftshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi**

Amaliy landshaftshunoslikning maqsadi va vazifalari. Amaliy landshaftshunoslikning tadqiqot bosqichlari. Landshaftlarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash. Baholashning asosiy tamoyillari va metodlari. Landshaftlarni prognozlash (bashoratlash). Uning asosiy tamoyillari. Prognozlash metodlari.

### **Landshaftlarni muhofaza qilish**

Landshaftlarni inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgarishi. Landshaftlarni muhofaza qilish masalalari.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

1. Tabiiy geografiya fanlar tizimida "Landshaftshunoslik" fani ahamiyat, fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligini chizmalarda ifodalash.
2. Landshaftshunoslik faniga hissa qo'shgan olimlar haqida esse yozish.
3. Komponentlar kartalarini qiyosiy tahlil qilish va tabiiy komplekslarning kartalarini yaratish.
4. Turli masshtabli va turli hududlar uchun tuzilgan landshaft kartalarini tahlil qilish.
5. Landshaftlarni tasniflash sxemalari va birliklarini o'rganish.
6. Landshaft kartalarini tahlil qilish asosida landshaftlar tasnifini aniqlash.
7. O'zbekiston landshaftlari kartasini chizish.
8. O'zbekiston landshaft kartasi asosida landshaft kesmalari tayyorlash.
9. Landshaft kartalarini zamonaviy dasturlarda tuzish usullari
10. O'z o'lkasi (okrugi) landshaftlari tasnifi (O'zbekiston landshaftlari kartasi asosida).
11. O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugi antropogen landshaftlari va ularning tasniflar tahlili
12. Landshaftlardan xo'jalikda oqilona foydalanish sxemasini tuzish.
13. Landshaftlarda moddaning biogeokimyoviy aylanishi sxemalarini chizish va tavsiflash.
14. O'zbekistonning tabiiy geografik okruglari landshaftlarini qishloq xo'jaligi va shaharsozlik maqsadida baholash.
15. Madaniy landshaftlarni barpo etish loyihasini tuzish.

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblardan ishlash amallari bajariladi.

### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmlari topshiriq tuzish;
- Ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Videorolik tayyorlash;</li> <li>- Ko'rgazmali qurol tayyorlash;</li> <li>- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;</li> <li>- Krassvord tuzish;</li> <li>- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;</li> <li>- Ha, yo'q javobli test tuzish;</li> <li>- Audio dars tayyorlash;</li> <li>- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;</li> <li>- Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;</li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekistonda landshaftshunoslikning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar haqida esse yozish.</li> <li>2. Landshaftshunoslikdagi ilmiy yo'nalishlar va ularning mazmuni tahlil qilish.</li> <li>3. Landshaft komponentlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va aloqadorliklar mavzusida taqdimot ishi tayyorlash.</li> <li>4. Landshaftlarning tabaqalanishida zonallik va azonallikni chizmalarda ifodalash.</li> <li>5. Landshaftlarning balandlik mintaqalanishi va landshaft yaruslarini chizmalarda ifodalash.</li> <li>6. Landshaftlarni o'rganishda modellastirish.</li> <li>7. Landshaftlarda modda va energiya harakatini chizmalarda ifodalash.</li> <li>8. Landshaftlarda biogeokimyoviy aylanma harakatlarni chizmalarda ifodalash.</li> <li>9. Landshaftlar dinamikasi haqida esse yozish.</li> <li>10. Landshaftlarning yoshini aniqlash.</li> <li>11. Landshaftlarni tasniflash bo'yicha turli olimlarning sxemalarini chizish.</li> <li>12. Landshaftlarni kartaga tushirish metodlarini o'rganish.</li> <li>13. Antropogen landshaftlarning strukturasi va barqarorligi haqida esse yozish.</li> <li>14. Cho'l landshaftlari va ulardan oqilona foydalanish prinsiplari tezis yozish.</li> <li>15. Tog' landshaftlari va ularning morfologik tuzilishini chizmalarda ifodalash.</li> <li>16. Landshaftlar geokimyosi mavzusida referat tayyorlash.</li> <li>17. Landshaftlarda namlik aylanishini chizmalarda ifodalash.</li> <li>18. Landshaftlar tipologiyasi mavzusida referat tayyorlash.</li> <li>19. Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash.</li> </ol>
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Talaba bilish kerak:</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• landshaftshunoslik tarixi; landshaft tushunchasining talqin etilishi; landshaftlarning ichki tuzilishi; landshaftlarning tabaqalanishi va omillari; landshaftlar dinamikasi, evolyusiyasi va rivojlanishi; landshaftlarning maxsus faoliyati; landshaftlarni tasniflash; tabiiy-antropogen, antropogen, madaniy landshaft tushunchalari; amaliy landshaftshunoslik masalalari; landshaftshunoslikdagi ilmiy yo'nalishlar to'g'risida <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>• landshaftlarning komponentlari, morfologik qismlari va ular orasidagi aloqadorliklarni tadqiq etish; landshaftlarni xo'jalik maqsadlarida baholash va xulosalar chiqarish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi</b>;</li> <li>• landshaftlarning ichki tuzilishini, landshaftlarning hududiy tabaqalanishini, ularning chegaralarini aniqlashni va kartaga tushirishni; landshaftlarning o'zgarishi va barqarorligini; landshaftlarning genezisi va yoshini aniqlashni; landshaftlarni tasniflashni; antropogen landshaftlarni aniqlash va tavsiflashni; landshaftlarni</li> </ul>

	baholash va prognozlashni; landshaftshunoslik tadqiqotlarini tashkil etish hamda turli karta va asbob-uskunalar bilan ishlashi bo'yicha bilimga <i>ega bo'lishi kerak.</i>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>ma'ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara</i></li> <li>• <i>interfaol keys-stadilar;</i></li> <li>• <i>diologik yondoshuv</i></li> <li>• <i>SWOT tahlili</i></li> <li>• <i>Wenn diagrammasi</i></li> <li>• <i>Bliz so'rov</i></li> <li>• <i>nilufar guli</i></li> <li>• <i>baliq skleti</i></li> <li>• <i>kim chaqqon</i></li> <li>• <i>blis so'rov</i></li> <li>• <i>blis test va boshqalar</i></li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Zokirov Sh.S. Landshaftshunoslik asoslari. –T.: Universitet, 2017</li> <li>2. Zokirov Sh.S. Antropogen va amaliy landshaftshunoslik. –T.: Universitet, 1998.</li> <li>3. Голованов А.И., Кожанов Е.С., Сухарев Ю.И. Ландшафтоведение. М. «КолосС», 2005.</li> <li>4. Казаков Л.К. Ландшафтоведение с основами ландшафтного планирования. М., 2007.</li> <li>5. Колбовский Е.Ю. Ландшафтоведение. М. Академия, 2006.</li> <li>6. Николаев В.А. Ландшафтоведение. Семинарские и практические занятия. М., 2006.</li> <li>7. Николаев В.А., Копыл И.В., Сысуев В.В. Природно-антропогенные ландшафты (сельскохозяйственные и лесохозяйственные). М., 2008.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>IX. Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Алиева Н.В. Ландшафтоведение. –Новочеркасск. 2012. –с. 113.</li> <li>2. Zakirov.Sh.S., Boymirzayev K.M. Landshaftshunoslik asoslari. –Namangan, 2012.- 2012. 62 b.</li> <li>3. Бобкова Ю.А. Ландшафтоведение. –Орел. 2015. –с. 56.</li> <li>4. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. –T.: O'qituvchi, 1996. 246 b.</li> <li>5. Марцинкевич Г.И. Ландшафтоведение. –Минск. 2005. –с. 200.</li> <li>6. Сочава В.Б. Введение и учение о геосистемах. Новосибирск, 1978.</li> <li>7. Марцинкевич Г.И. и др. Основы ландшафтоведение. -Минск, 1986.</li> <li>8. Милков Ф.Н. Ландшафтная география и вопросы практики. -М.: 1966.</li> <li>9. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. -М.: 1999.</li> <li>10. Hasanov I., Gulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. (2-qism). O'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 2007.O'zMU. 2000.</li> <li>11. Nigmatov A.N. Yusupov R. Tabiiy geografik komplekslar va ekzogen jarayonlar. -T.: Turon iqbol, 2006.</li> <li>12. Paul A. Landscape Agroecology. –London “Oxford”, 2004. -p 348</li> </ol>

	<p>13. Giblett R. Landscapes of Culture and Nature. –London “Oxford”, 2009. -p 218.</p> <p style="text-align: center;"><b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI</b></p> <p>1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti</p> <p>2. <a href="http://www.uzedu.uz">http://www.uzedu.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi sayti.</p> <p>3. <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a> - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.</p> <p>4. <a href="https://unilibrary.uz/">https://unilibrary.uz/</a> - O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi</p> <p>5. <a href="https://library.uzfi.uz/">https://library.uzfi.uz/</a> - Samarqand davlat pedagogika instituti elektron kutubxona axborot tizimi</p> <p>6. <a href="https://t.me/geograflar_kutubxonasi">t.me/geograflar_kutubxonasi</a> - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar telegram kanali</p>
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti Kengashining 2025-yil “ ____ ” _____ -son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:</b></p> <p>O.I.Sherxolov – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida dotsenti v.b (PhD)</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>B.M.Musayev - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasida v.b.dotsenti (ichki)</p> <p>A.X.Ravshanov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Geografiya va ekologiya fakulteti dekani (tashqi)</p>

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 94 o‘rinni egallagan Moskva davlat universitetning Geografiya fakulteti Geografiya yo‘nalishi (Ландшафтоведение) fani dasturi va yuqorida qayd etilgan reytingda 31 o‘rinni egallagan Seul Milliy Universiteti.. (Cultural Geography) dasturlari tahlil qilib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi va shu asosida (60530200 – Geografiya) ta’lim yo‘nalishining “Landshaftshunoslik” fanining dasturi tayyorlanib 1 ta mavzusi yangilandi.

1.[https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog\\_distc/programs\\_3xx/bak\\_NoZ/b\\_NoZ\\_Landshaft\\_ovedenie\\_2021.pdf](https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_NoZ/b_NoZ_Landshaft_ovedenie_2021.pdf)

2.<https://en.snu.ac.kr/webdata/uploads/eng/file/2020/02/Geography.pdf>

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetining 2025-yil 23-apreldagi 2-sonli farmoyish bilan tuzulgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

**Tuzuvchi:**

**Q.I.Sherxolov**

**Kafedra mudiri:**

**A.Kamroyeva**

**Fakultet dekani:**

**U.M.Mirzayev**

**O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:**

**N.H.Musulmonov**





**Samarqand davlat pedagogika instituti**  
**“Geografiya” kafedrasi v.b. dotsenti O.I.Sherxolov tomonidan**  
**tayyorlangan “Landshaftshunoslik” o‘quv fan dasturiga**  
**TAQRIZ**

Landshaftshunoslik fani talabalarga geografik qobiqning rivojlanishi, tuzilishi, bo'linishi, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro ta'sirini o'rgatish, Yer haqida umumiy va dastlabki tabiiy geografik bilimlarni, Yerning yadrosi, mantiyasi, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera haqida umumiy ma'lumotlar va ularda ro'y beradigan hodisalar, ularning xususiyatlari haqida bilimlar berishdan iborat.

“Landshaftshunoslik” fani boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega fan hisoblanadi. “landshaftshunoslik” fan dasturi 60111000 - geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan ushbu fan dasturi davlat ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim mazmuni, ya'ni fanning maqsad va vazifalari, ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim mazmuni, fan o'qitilishining natijalari, ya'ni talabalarda shakllanadigan kompetensiya, ta'lim texnologiyalari va metodlari, talabalarning kreditlarni olishlari uchun qo'yiladigan talablar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan dasturi fanning nazariy asoslarini to'liq qamrab olgan va har bir mavzu bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar keltirib o'tilgan bo'lib, dasturning amaliy mashg'ulot qismi talabalarning nazariy jihatdan egallagan bilimni amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o'z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish talablariga javob beradi hamda mazkur dasturda ta'lim berishning pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va har bir darsni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Muallif tomonidan yaratilgan “landshaftshunoslik” fan dasturi malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturi nashr qilishga loyiq deb hisoblayman.

**SamDU Geografiya va ekologiya**  
**fakulteti dekani:**



**dots.A.X.Ravshanov**

**O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti**  
**"Geografiya" kafedrası v.b. dotsenti O.I.Sherxolov tomonidan**  
**tayyorlangan "Landshaftshunoslik" o'quv fan dasturiga**

**TAQRIZ**

Landshaftshunoslik kursining asosiy mazmuni talabalarda yer landshaft qobig'ining bir butunligini, uning komponentlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'ligi va aloqador ekanligi ular orasidagi murakkab modda va energiya almashuvi jarayoni mavjudligi haqidagi tushunchalarni shakllantirishga hamda yer landshaft qobig'ini tashkil qiluvchi geosistemalar haqidagi bilimlarni hosil qilishdan iboratdir.

Bugungi kunda Landshaftshunoslik fani talabalariga V.V. Dokuchayevning tabiiy komponentlar aloqadorligi va ular bir butun majmua sifatida o'rganilishi kerakligi haqidagi g'oyalari. 1913-1914 yillardagi rus tabiatshunos olimlari L.S.Berg, G.F.Morozov, I.M.Krashennikov, R.I. Abolinlarning landshaft haqidagi fikrlari. 1920-1940 yillarda bajarilgan B.B.Polinov, I.V.Larin, A.D.Gojev, L.G.Ramenskiy, L.S.Berg kabilarning ishlari va ularning landshaftshunoslik fanining rivojlanishiga qo'shgan hissasi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlardagi landshaftshunoslikning rivojlanishi va unda L.S.Berg, N.A.Solnsev, S.V. Kalesniklarning roli. 1950-1970 yillardagi A.G.Isachenko, F.N.Milkov, V.S. Preobrajenskiy, N.A. Gvozdeskiy, D.L.Armand, V.B.Sochava va boshqalarning landshaftshunoslikka qo'shgan hissalar. O'zbekiston landshaftshunos olimlarining fanning rivojiga qo'shgan hissalar, Landshaftlarning morfologik tuzilishi. L.G.Ramenskiy, B.B.Polinov, N.A.Solnsevlarning landshaft morfologiyasiga qo'shgan hissalar. Fatsiya landshaftlarning eng kichik morfologik qismi ekanligi. Fatsiyaning bir butunligi va bo'linmasligi. Fatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Ularni tasniflash masalalari, Antropogen landshaftshunoslik yo'nalishiniig vujudga kelishi va shakllanishi. Antropogen landshaft tiplari va ularning tasnifi. Tabiiy-antropogen landshaftlar va ularning hosil bo'lish omillari. Landshaftlardagi ma'lum maqsadlarni ko'zlab qilingan ta'sirlar, ularning oqibatida kutilgan va kutilmagan o'zgarishlar. Antropogen landshaft, madaniy landshaft tushunchalari haqida bilimlar beriladi.

Muallif tomonidan yaratilgan "Landshaftshunoslik" fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 - "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturni nashr qilishga loyiq deb hisoblayman.

**Samarqand davlat pedagogika**  
**instituti Geografiya kafedrası**  
**v.b. dotsenti:**



**PhD. B.M.Musayev**